

“NKMK” AJ Kuzatuv kengashining
2024-yil 7-iyundagi
4-son majlis bayonnomasiga
21-ilova

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatini xodimlarining

ODOB-AXLOQ KODEKSI

Ushbu Odob-axloq kodeksi (keyingi o‘rinlarda – Kodeks) “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatini (keyingi o‘rinlarda – “NKMK” AJ, Kombinat) xodimlari o‘zlarining fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lish, huquqbazarlikning oldini olish, uni sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga xizmat qilishi maqsadida ishlab chiqilgan.

Kodeks “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a’zolari hamda barcha ishchi-xodimlari rioya etadigan odob-axloqning etik me’yorlarini belgilab beradi.

1-bob. Umumiyligida qoidalar

1. Ushbu Kodeks “NKMK” AJ xodimlarining mehnat vazifalarini bajarish, ish va jamoat joylarida Kodeksda nazarda tutilgan talablarga rioya etish, har bir xodim egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar, “NKMK” AJ xodimlarining kasbiy odob-axloqining umumiyligini prinsiplari, xulq-atvorining asosiy mezoni hisoblanib, ishchi-xodimlar tomonidan unda qo‘yilgan talablar bajarilishi hamda rioya etilishi majburiy xususiyatga ega.

2. Mazkur Kodeks “NKMK” AJ xodimlari tomonidan o‘zlarining fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lishi, huquqbazarlikning oldini olishi, uni sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Xodimlarning yuksak huquqiy ongga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiutsiyasi, Qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlariga qat’iy rioya qilishini nazarda tutadi.

3. “NKMK” AJning barcha ishchi-xodimlari, shu jumladan, ishga kirayotgan har bir shaxs Odob-axloq kodeksi bilan rasmiy tarzda tanishtirilishi shart.

4. “NKMK” AJning har bir xodimi amaldagi tegishli qonun hujjatlari va mazkur Odob-axloq kodeksi talablariga qat’iy rioya etishlari shart.

5. “NKMK” AJning har bir tarkibiy tuzilmasida “Odob-axloq komissiyasi” tarkibi tasdiqlanadi. Ushbu komissiya Kodeks talablari ijrosini joylarda ta’minlab boradi.

6. Mazkur Kodeksning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

favoritizm – “NKMK” AJ xodimi boshqa shaxs va (yoki) shaxslar guruhi

manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va (yoki) shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, kadrlarni tanlash, joylashtirish, lavozimini ko‘tarish, mukofot puli berish, davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta’til berish yoki sihatgohlar hamda xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvallarini ko‘rib chiqishda ketma-ketlikni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik.

kronizm (favoritizmning do‘stona aloqalarga asoslangan ko‘rinishi) – do‘stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida vakolat va/yoki obro‘sidan foydalanish;

nepotizm (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik, favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko‘rinishi) – o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida vakolatdan foydalanish va (yoki) ta’sir o‘tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, korxona manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari, do‘stlarini ishga qabul qilish hamda lavozimga tayinlashlar;

mahalliychilik – mahalliy manfaatlarnigina ko‘zlab ish tutish. Bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e’tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqeい sababli, uning lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotasiya qilish yoki lavozimga tayinlash;

urug‘-aymoqchilik – “NKMK” AJ xodimining avlod-ajdodlari bir bo‘lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan sub’ektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

shafelik – “NKMK” AJ xodimining lavozimi yuqoriqoq bo‘lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi;

yaqin qarindoshlar – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya’ni ota-onas, tug‘ishgan hamda tutingan aka-ukalar, opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tug‘ishgan va tutingan aka-ukalari, opa-singillari;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xi洛 ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xi洛 ravishda taqdim etish;

manfaatlar to‘qnashuvi – “NKMK” AJ xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, korxonaning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

xodim – “NKMK” AJ bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

mansabdar shaxs – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, mulk shaklidan qat’iy nazar korxonalarda, vakolatxona, filialda tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs;

jamiyat boshqarmasi bo‘linmalari – “NKMK” AJning tasdiqlangan tashkiliy tuzilmasiga asosan jamiyat boshqarmasi (markaziy apparati)ning xizmatlari, boshqarmalari, bo‘limlari, guruhlari;

jamiyat tuzilmalari – “NKMK” AJning tasdiqlangan tashkiliy tuzilmasiga ko‘ra, jamiyat boshqaruviga bevosita yoki bilvosita bo‘ysunadigan hududiy ishlab chiqarish boshqarmalari, filiallari, hududiy boshqarmalari, sexlari, markazlari, bazalari hamda vakolatxonalar;

“NKMK” AJ rahbarlik lavozimlari – “NKMK” AJ Boshqaruv raisi-Bosh direktori va o‘rinbosarlari, Boshqaruv a’zolari, direktorlar, jamiyat markaziy apparati bo‘linmalari, jamiyat tuzilmalari, bo‘lim, xizmat, byuro, laboratoriya, markaz, guruh, sex, baza rahbarlari hamda ularning o‘rinbosarlari;

xodimning shaxsiy manfaati – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishda uning yaqin qarindoshi, unga aloqador bo‘lgan tijorat tashkilotlarining vakillari yoki aksiyadorlar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim daraja bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olishi;

xodimlarning odob-axloqi – xodimlar egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar rivoja qilishi shart bo‘lgan kasbiy xizmat odob-axloq normalari, prinsiplari va qoidalari hamda xulq-atvorning umumiy yig‘indisi;

ish jarayonidagi mehmondo‘stlik belgilari – xodimlarning ish faoliyati davomida boshqa shaxslar tomonidan ularning manfaatida tushlik, kechki ovqatlanish, transport, istiqomat qilish va boshqa xarajatlarni qoplash bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirishi;

sovga – xodimlarga bepul beriladigan har qanday mulk;

ta’qib qilish – jamoada xodimni ta’qib qilish shaklida, odatda uni keyinchalik ishdan bo‘shatish maqsadida psixologik tazyiq o‘tkazish;

tanish-bilishchilik – xodim tomonidan o‘zining qarindoshlari yoki do‘stlariga asossiz imtiyozlar berish maqsadida lavozim vakolatlaridan foydalanish va (yoki) boshqa shaxslarga ta’sir o‘tkazish;

dabdababozlik – o‘zining mulki, daromadi va mansabini xalqqa ko‘z-ko‘z qilish natijasida o‘ziga va Kombinatga nisbatan nafrat uyg‘otish, shu bilan birga, Kombinat imidjiga salbiy fikrlarni vujudga keltirish;

shuhratparastlik – shon-shuhrat ketidan quvishda namoyon bo‘ladigan axloqiy illat bo‘lib, doimo atrofdagilar va jamiyatning diqqat markazida turishga, soxta obro‘

qozonishga, mashhurlikka intilishga, o‘zini boshqalardan baland tutishga, buning natijasida jamiyatning axloqiy talablari bilan individ sifatida o‘z biologik va ma’naviy intellektual imkoniyatlari bilan mutlaqo hisoblashmaydigan ijtimoiy nafs bandasiga aylantirib qo‘yadigan, mavjud voqelikni atrofidagilarning o‘ziga bo‘lgan asl munosabatini haqiqiy baholay olmaydigan, hayotdagi o‘z insoniy vazifasini bajarmay qo‘yadigan, manman, maqtanchoq kishiga aylantiradigan, faqat nom chiqarishni keltirib chiqaruvchi holat;

guruhbozlik – ikki yoki undan ortiq xodimlar tomonidan o‘z manfaatlarini ko‘zlab, jamiyatning qonuniy qarorlarini qabul qilinishiga salbiy ta’sir o‘tkazish, shu jumladan, guruh manfaatlarini ko‘zlab xodimlarni ishga qabul qilish, lavozimini ko‘tarish, asossiz rag‘batlantirish va ustamalar belgilash (oshiruvchi koeffitsient), xizmat vazifalarini xodimlar o‘rtasida noto‘g‘ri taqsimlash;

maishatbozlik – xodimning o‘ziga boshqacha tarzda ta’sir qiladigan (giyohvandlik vositalari, taqiqlangan har xil turdag‘i psixotrop moddalar va boshqa) vositalarga berilishi, shu bilan birga ayollar qurshovida ko‘ngil xushlik o‘tkazish (ayol xodimalar uchun buning aksi);

ichkilikbozlik – spirtli ichimliklarga mukkasidan ketish yoki surunkali me’yordan ortiq (o‘zini boshqarish qobiliyatini yo‘qotish darajasida) iste’mol qilish.

2-bob. Xodimlar xulq-atvorining asosiy prinsiplari va qoidalari

7. “NKMK” AJ xodimlari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak:

- qonuniylik;
- fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;
- davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;
- adolatlilik, halollik va xolislik;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- ochiqlik, shaffoflik va prinsipiallik;
- korrupsiyaga toqatsizlik;
- professionallik va layoqatlilik;
- samaradorlik va tejamkorlik;
- mansab vakolatlarini suiiste’mol qilmaslik;
- xizmat sirini qat’iy saqlash.

8. Xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari va uni tartibga solish jarayoni “NKMK” AJda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi ichki idoraviy hujjatda belgilab qo‘yiladi.

9. “NKMK” AJ xodimlari quyidagilarga majbur:

- xizmat vazifalarini bajarishda Odob-axloq prinsiplari va talablariga qat’iy rioxva

etish;

- o‘z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;
- rahbariyat, yuqori organlarning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari hamda bergan topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;
- xodimning bevosita rahbaridan yuqori turuvchi rahbarning bergan topshiriqlarini amalga oshirayotganligi bo‘yicha bevosita rahbarini xabardor qilish;
- o‘z faoliyatini lavozim yo‘riqnomasi va ichki hujjatlarda belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;
- o‘z xizmat vazifalarini bajarishda biron bir shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta’siridan mustaqil bo‘lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari hamda qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik;
- o‘z xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sinqilik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlarga barham berish;
- normativ-huquqiy hujjat hamda idoraviy hujjatlarda belgilangan cheklashlar va taqiqlarga rioya qilish, o‘z xizmat vazifalarini og‘ishmay bajarish;
- o‘z xizmat faoliyatiga biror-bir ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga barham berish;
- O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar xalqlarining urf-odatlari, an’analarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar, konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlik, millatlararo, konfessiyalararo totuvlikka ko‘maklashish;
- jamiyat ishchi-xodimlari va boshqa shaxslarni jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeい bo‘yicha kamsitmaslikka;- o‘zlarining lavozim vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo‘lgan xulq-atvordan o‘zini tiyish, shuningdek, o‘z obro‘siga yoki “NKMK” AJning nufuziga zarar yeetkazishga qodir bo‘lgan vaziyatlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi, boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatmaslik;
- “NKMK” AJ va uning rahbariyati nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan hamda aniq bo‘limgan (asoslanmagan) xabarlarni ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlarda tarqatmaslik;
- xizmat mavqeidan “NKMK” AJ, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanmaslik;
- ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan munosabatda vakolatiga kirmaydigan yoki aniq ma’lumotga ega bo‘limgan vaqtida “NKMK” AJning jamoatchilik bilan aloqalar tuzilmasi bilan birgalikda javob berishini ma’lum qilishi;
- “NKMK” AJga taalluqli xabarlar va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan qoidalariga rioya etish;

- xizmat safarlari, nazorat tadbirlari davomida mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday turdagи sarf-xarajatlarni boshqa shaxslar hisobidan amalga oshirmaslik;

- chet el fuqarolari bilan muloqotga kirishishda jamiyat manfaatlariga putur yetkazadigan ma’lumotlarni oshkor etmaslik;

- biriktirilgan xizmat kompyuteri hamda elektron tashuvchilaridagi xizmatga oid ma’lumotlarning xavfsiz saqlanishini ta’minalash va ularni boshqa shaxslarga tarqatilishini oldini olish choralarini ko‘rish;

- jamoada sog‘lom ma’naviy muhitni saqlash choralarini ko‘rish;

- mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga, shuningdek, telefonda so‘zlashish va kiyinish madaniyatiga qat’iy rioya etish.

10. “NKMK” AJ xodimlari quyidagilarga haqli emas:

- mansab vakolatlarini siyosiy partiylar, jamoat birlashmalari va ularning organlari ham boshqa tashkilotlarning manfaatlari yo‘lida amalga oshirish;

- o‘z xizmat mavqeini suiiste’mol qilgan holda fuqarolar, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga zarar yeetkazish orqali shaxsiy foydani olishga.

11. Siyosiy, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlik, shuningdek, shaxsiy vajlar va boshqa sub’ektiv sabablar “NKMK” AJ xodimlarining qonun hujjatlari talablarini hamda Odob-axloq kodeksini buzishi uchun asos bo‘la olmaydi.

12. “NKMK” AJ xodimlariga o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud jismoniy (yoki yuridik) shaxslardan boshqacha naf ko‘rish taqiqlanadi.

13. “NKMK” AJ xodimlari o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni ularni huquqbazarliklar sodir etishga og‘dirish maqsadida, biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to‘g‘risida, shuningdek, boshqa davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan har qanday holatlari haqida o‘z vaqtida, tezkor xabardor etishi shart.

14. “NKMK” AJ rahbarlik lavozimlariga tayinlangan xodimlar qo‘l ostidagilarning qonunchilikning buzilishi faktlari to‘g‘risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan tanqidiy fikrlari uchun, ishdan bo‘shatilishiga yoki ta’qib qilinishiga yo‘l qo‘ymasligini ta’minalashi kerak.

15. “NKMK” AJ xodimlari kasbiy faoliyati davomida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan axborotning saqlanishini va maxfiyligini ta’minalash yuzasidan barcha choralarini ko‘rishlari shart, ularning oshkor etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgardir.

Xodim “NKMK” AJdan ishdan bo‘shatilgandan so‘ng, u Kombinatda ishlagan davrda olgan maxfiy ma’lumotlardan kelgusida foydalanmaslik majburiyatini saqlab qoladi.

16. “NKMK” AJ rahbarlik lavozimlariga tayinlangan Rahbar:

- manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o‘z vaqtida chora-tadbirlar ko‘rishi kerak;

- korrupsiyaning oldini olish choralarini ko‘rishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda faol qatnashadigan xodimlarni himoya qilish va rag‘batlantirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

- xodimlarni samarali boshqarishi, o‘ziga ishonib topshirilgan “NKMK” AJ mulkiga va moliyaviy mablag‘larga ehtiyyotkorlik hamda tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishi shart.

- rahbar o‘ziga bo‘ysunuvchi, xizmatdagi xulq-atvori prinsiplari va qoidalarini buzayotgan xodimlarning xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo‘l qo‘yilmasligi choralarini ko‘rmaganligi uchun javob beradi.

- “NKMK” AJ rahbarlik lavozimlariga tayinlangan Rahbar o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o‘rnak bo‘lishi, jamoasida ma’naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko‘maklashishi lozim. U bo‘ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, qo‘l ostidagi yoki bo‘ysunuvidagi xodimlar bilan ishqiy munosabatda bo‘lmasligi, shuningdek, qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

- “NKMK” AJ rahbarlik lavozimlariga tayinlangan Rahbar kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash va joy-joyiga qo‘yish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak. U guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm, shafelik, urug‘-aymoqchilik, nepotizm, kronizm ko‘rinishlarining, shuningdek, o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat’iy ravishda oldini olishi lozim;

- rahbarlar bo‘ysunuvidagi xodimlariga qo‘pol muomalada bo‘lishi, haqorat qilishi, shaxsiyatiga tegishi, ularga asossiz tanbeh berishi yoki ayblashi hamda kamsitishi mumkin emas.

17. “NKMK” AJ xodimlari o‘zlarining lavozim xulq-atvori bilan jamoada boshqa xodimlar bilan o‘zaro ishchanlik va amaliy hamkorlik qaror topishiga da‘vat etishi lozim.

18. “NKMK” AJ xodimlari xushmuomala, iltifotli, odobli, e’tiborli bo‘lishi shart. Qo‘pollik qilmasligi, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik ta’sir ko‘rsatish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Oиласида sog‘lom muhitni ta’minlab, oila a’zolariga doimiy g‘amxo‘r bo‘lish, farzandlarida vatanparvarlik va boshqa yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishi lozim.

19. Mehnat vazifalarini bajarish chog‘ida ish sharoitlari va xizmat tadbirlarining shakliga bog‘liq holda xodimlarining tashqi ko‘rinishi fuqarolarning “NKMK” AJga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga yordam berishi, umumiyligini qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo‘lishi, ular rasmiyligi, vazminligi, tartiblilihi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

20. “NKMK” AJ xodimlarining ishga atrofdagilarning alohida e’tiborini tortadigan kiyimda (*rasmiy bo‘lmagan ochiq, tor va kalta kiyinish, shuningdek “NKMK” AJ va milliy an‘analarimizga zid bo‘lgan g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi yoki boshqa kiyimlarda kiyinish*) va sport kiyimida bo‘lishlari hamda ko‘p miqdordagi

taqinchoqlarni taqib kelishlari taqiqlanadi. “NKMK” AJ tomonidan maxsus kiyim bosh ajratilgan bo‘lsa, ish vaqtida shu kiyimda bo‘lishi shart.

21. “NKMK” AJ xodimlari davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘tkaziladigan yig‘ilishlar (shu bilan birga, videoselektor, konferensiya, suhbat, uchrashuv, seminar, va boshqalar)da o‘zini rasmiy, kamtar, intizomli tutgan holda mobil telefonda so‘zlashishi va yon atrofidagilar bilan suhbatlashishi taqiqlanadi. Yig‘ilishlarda rahbar va xodimlarga nisbatan hurmat munosabatida bo‘lishi lozim.

22. “NKMK” AJ xodimlari ish vaqtidan tashqari vaqtida umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

3-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi

23. “NKMK” AJ xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

24. Manfaatlar to‘qnashuvi “NKMK” AJ xodimlarining shaxsiy manfaatlari ularning o‘z xizmat vazifalarini xolisona va beg‘araz bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlarda paydo bo‘lishi mumkinligini barcha chuqr anglashi shart.

25. “NKMK” AJ xodimlarining shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o‘zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek, ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo‘ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko‘rish yoki afzalliklarga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi.

26. Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda “NKMK” AJ xodimlari o‘z rahbari yoki korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmasi yoxud tegishli organlarni darhol xabardor qilishi kerak.

27. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shart.

28. “NKMK” AJ xodimlari o‘zlarining lavozim vazifalarini zarur darajada bajarishiga yoki ularga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan faoliyatni amalga oshirmasligi, shuningdek, o‘z xizmat mavqeidan foydalanib mumkin bo‘lmagan shaxsiy foydani olmasligi kerak.

29. “NKMK” AJ xodimlari lavozimga tayinlanayotganda va lavozim vazifalarini bajarayotganda o‘zining lavozim vazifalarini zarur darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligining mavjudligi yoki mavjud bo‘lishi imkoniyati to‘g‘risida ma’lum qilishi shart.

30. “NKMK” AJ Kuzatuv kengashining a’zosi bo‘lgan davlat xizmatchilari har doim “NKMK” AJ manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishlari lozim. Bu ularning davlat xizmatchilari sifatidagi faoliyati Kuzatuv kengashi a’zosi sifatidagi bevosita vazifalarini bajarishga ta’sir qilmasligi kerak.

4.bob. Biznes hamkorlar va yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar

31. “NKMK” AJ uchun ishonch va shaffoflikka asoslangan biznes aloqalari juda muhimdir. Biznes hamkorlar va yetkazib beruvchilar “NKMK” AJning biznes yuritish qobiliyati uchun juda muhim hisoblanadi, ammo ularning harakatlari insonlarga zarar yetkazishi yoki bunga hissa qo’shishi yoxud “NKMK” AJni obro’sizlantirishi, har qanday xavf-xatarlarga duchor qilishi mumkin emas.

32. “NKMK” AJning biznes hamkorlari va yetkazib beruvchilari amaldagi qonunchilikka rioya qilishlari, xalqaro miqyosda tan olingan inson huquqlarini hurmat qilishlari va jamiyatda yoki u bilan ishslashda ushbu Kodeksda belgilangan talablarga javob beradigan axloqiy me’yorlarga rioya qilishlari zarur.

33. Har qanday ishbilarmonlik munosabatlarini o’rnatishdan oldin “NKMK” AJning biznes yuritish va axloq qoidalariga bo’lgan talablari biznes hamkorlar va yetkazib beruvchilarga yetkazilishi lozim. Biznes hamkor yoki yetkazib beruvchi tomonidan har qanday huquqqa xilof xatti-harakatlarni “NKMK” AJning aloqa kanallari orqali xabar qilishi kerak.

5-bob. Odob-axloq sohasida qonunbuzarliklar haqida xabarlar

34. Xodimlar hamda boshqa shaxslarda “NKMK” AJ xodimlar harakatlari qonuniyligi va (yoki) odob-axloqida shubha paydo bo’lganda, Kodeksning buzilish ehtimoli holati yoki ularni sodir etilganligi fakti bo‘yicha asosli gumoni bo’lganda, bu haqida mavjud aloqa kanallari orqali xabar berishlari majburdir.

35. “NKMK” AJ Odob-axloq komissiyasi hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi o‘z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida qonunbuzarlik haqida ishonchli axborot bergen shaxsning maxfiyligini ta’minlaydilar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

36. “NKMK” AJ o‘z xodimlarining manfaatlarini himoya qiladi va qasos olish, jumladan, ishdan bo‘shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, xodimining shubhali xulq-atvori yoki mazkur Kodeksdagi odob-axloq normalari hamda tamoyillarini buzish ehtimoli haqida ixtiyoriy xabar bergen xodimlarni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymasligini ta’minlaydi.

37. Mazkur Qoidalarning buzilishi haqidagi xabarlar quyidagi aloqa kanallari orqali berilishi mumkin:

- bevosita yoki telefon orqali Kadrlar boshqarmasi, Komplayens xizmatiga, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid ishlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limiga;

- “NKMK” AJ rahbariyati va Ofis-menejer bo‘limiga;

- “NKMK” AJ rasmiy elektron pochta manziliga;

- Odob-axloq komissiyasi raisiga.

38. “NKMK” AJning aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar qonunchilik va ichki hujjatlarga muvofiq xolisona hamda o‘z vaqtida Odob-axloq

komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

39. “NKMK” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv raisi - Bosh direktori, uning o‘rinbosarlari, boshqaruv a’zolari, bo‘linmalar, filial va vakolatxonalar hamda tarkibiy tuzilmalari rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari bo‘yicha murojaatlar “NKMK” AJ “Markaziy apparatining Odob-axloq komissiyasi” tomonidan o‘rganib chiqiladi.

40. “NKMK” AJning xodimi tomonidan bila turib yolg‘on ma’lumot berilishi mazkur Kodeksning buzilishi va g‘ayriaxloqiy xulq-atvor namunasi sifatida qaraladi, bunday shaxs esa qonunchilik hamda ichki idoraviy hujjatlarga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

41. Jamiyat qonunchilikka muvofiq xodimlar, yetkazib beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning salomatligi va hayoti xavf ostida qolmasligi uchun xavfsiz mehnat muhitini ta’minlash choralarini ko‘radi. Barcha xodimlar mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi sohasida jamiyatning barcha siyosatlari, qoidalari va tartib-taomillarini bilishlari va ularga rioya qilishlari, shu jumladan har qanday shubhali xavf haqida zudlik bilan xabar berishlari shart.

6-bob. Odob-axloqni buzganlik uchun javobgarlik va hisobdorlik

42. “NKMK” AJ xodimlari tomonidan Kodeksning buzilishi uni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi mumkin.

43. “NKMK” AJ xodimlarining Kodeksga rioya etishi ularni attestasiatsiyalardan o‘tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

44. Ushbu Kodeks normalarining buzilishlari Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

45. Odob-axloq komissiyasining tarkibi, maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va uning faoliyatini tashkil etishning boshqa masalalari “NKMK” AJ Boshqaruv raisi-Bosh direktori tomonidan tasdiqlanadigan Nizomda belgilanadi.

46. Kodeksning buzilishi holatlarini Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha intizomiy yoki boshqacha tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

47. Yo‘l qo‘ylgan qoida buzilishining xarakterini hisobga olgan holda, komissiya xodimga nisbatan Odob-axloq kodeksining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

48. Jamiyatning Komplayens xizmati tomonidan mazkur Odob-axloq kodeksi talablarini buzgan xodimlar bilan profilaktik suhbat o‘tkaziladi.

49. Odob-axloq komissiyasi ushbu Kodeksda belgilangan talablarga rioya qilinishi ustidan doimiy nazorat olib boradi va belgilangan talablarning buzilishi holatlari bo‘yicha zarur choralar ko‘radilar.

50. Odob-axloq komissiyasi qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib

belgilanmagan taqdirda, ushbu Kodeksni buzgan xodimlarga nisbatan tegishli choralarni qo'llash to'g'risida Kombinatning Boshqaruv raisi – Bosh direktoriga taklif kiritadi.

51. Odob-axloq komissiyasi o'z faoliyati bo'yicha yillik hisobotlarni jamiyatning Boshqaruviga kiritadi.

7-bob. Jamiyat xodimlarining kasbiy majburiyatlari hamda xizmatdan tashqarida bo'lgan odob-axloq normalari va qoidalari

52. Xodimlarning tashqi ko'rinishi mehnat sharoitlari va xizmat turiga qarab, xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida fuqarolarning jamiyatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi hamda rasmiylik, neytrallik, kamtarlik, intizomni namoyon etishi lozim.

53. Jamiyat va uning bo'linmalarida barcha xodimlar ish joyida bir xilda ularning siyosiy, mafkuraviy qarashlarini yoki dingga munosabatini aks ettiruvchi libosda bo'lish yoki belgilarni ta'qib yurish, har xil qimmatbaho zeb-ziynat, taqinchoq hamda boshqa buyumlarni taqib yurish, olib yurish tavsiya etilmaydi.

54. Xodimlar ish vaqtidan tashqari:

- umume'tirof etilgan odob-axloq normalariga amal qilishi;
- g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymasligi;
- tegishli xizmatlarni qabul qilishda o'zlarining mansab mavqeidan foydalanmasliklari;
- o'zi tomonidan jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga putur yetkazuvchi qonun talablari buzilishining oldini olish hamda boshqa fuqarolarni noqonuniy ijtimoiy harakatlarni sodir etishga jalb qilmasligi lozim;
- dabdababozlik, shuhratparastlik, guruhbbozlik, maishatbozlik va ichkilikbozlik kabi salbiy illatlarga yo'l qo'ymaslik;
- jamoat joylarida (afe, restoran va boshqa ko'ngilochar maskanlarda) o'zini tutish qoidalariga rioya etish, atrofdagilarning e'tiborini tortuvchi ortiqcha va salbiy harakatlarga yo'l qo'ymaslik;
- xizmat avtotransport vositalaridan xizmat faoliyatidan tashqari shaxsiy maqsadlarda foydalanmaslik;
- shaxsiy transport vositalaridan foydalanishda belgilangan tartibda amal qilish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya etish.

55. Jamiyat xodimlari fuqarolar bilan munosabatlarda o'zlarining xolisligi, mustaqilligi, beg'arazligiga shubha ostiga qo'yadigan, shuningdek har qanday afzalliklar, g'arazlik va korrupsiyani keltirib chiqaruvchi vaziyatlardan o'zini tiyishi shart.

56. Xodimlar chet el va hududiy xizmat safarlarida Qonunchilik hujjatlari hamda ichki idoraviy hujjatlarda belgilangan tartib qoidalarga rioya qilgan holda zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarishi lozim.